

TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA CHET TILINI O'QITISHNING METODIK ASOSLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-246-251>

Shamsuvaliyeva Elsuyar Asgatovna

Toshkent shahridagi ADJU universiteti,
Ingliz tili va filologiya menejmenti fakulteti,
ingliz tili kafedrası v.b.dotsenti
elsuyar1989@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida gender tenglik madaniyatini shakllantirish masalalari chet tilini o'qitish metodikasi bilan uzviy bog'liq holda tahlil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlari asosida raqobatbardosh, ijtimoiy mas'uliyatli va gender tenglik tamoyillariga sodiq mutaxassislar tayyorlash zarurati yoritilgan. Maqolada chet tilini o'qitishda o'qish va yozuv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida gender tenglik g'oyalarini integratsiya qilishning didaktik va metodik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, tolerantlik va ijtimoiy ongni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *gender tenglik madaniyati, ta'limni modernizatsiyalash, oliy ta'lim tizimi, chet tilini o'qitish, o'qish kompetensiyasi, yozuv kompetensiyasi, pedagogik innovatsiyalar, ijtimoiy ong.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы формирования культуры гендерного равенства в системе высшего образования в тесной взаимосвязи с методикой преподавания иностранных языков. На основе нормативно-правовых документов, направленных на развитие высшего образования Республики Узбекистан, обосновывается необходимость подготовки конкурентоспособных специалистов, обладающих социальной ответственностью и приверженностью принципам гендерного равенства. Анализируются дидактические и методические основы интеграции идей гендерного равенства в процесс развития компетенций чтения и письма при обучении иностранному языку. Также предлагаются практические рекомендации по формированию критического мышления, толерантности и социальной осознанности студентов с использованием инновационных педагогических подходов.

Ключевые слова: *культура гендерного равенства, модернизация образования, система высшего образования, обучение иностранному языку, компетенция чтения, компетенция письма, педагогические инновации.*

ABSTRACT

This article examines the formation of a gender equality culture in the higher education system in close connection with foreign language teaching methodology. Based on the regulatory and policy documents aimed at developing higher education in the Republic of Uzbekistan, the study highlights the need to train competitive specialists who demonstrate social responsibility and commitment to gender equality principles. The article analyzes the didactic and methodological foundations for integrating gender equality ideas into the development of reading and writing competencies in foreign language education. In addition, practical recommendations

are proposed for fostering students' critical thinking, tolerance, and social awareness through innovative pedagogical approaches.

Keywords: *gender equality culture, education modernization, higher education system, foreign language teaching, reading competence, writing competence, pedagogical innovations.*

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'limni modernizatsiyalash jarayoni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni, balki talabalarda ijtimoiy muhim qadriyatlarni, jumladan, gender tenglik madaniyatini shakllantirishni ham taqozo etmoqda. Gender tenglik madaniyati erkaklar va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarini tan olish, gender stereotiplardan xoli fikrlash hamda o'zaro hurmatga asoslangan muloqotni anglatadi. Ushbu qadriyatlarni singdirishda chet tilini o'qitish jarayoni alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Ta'limni modernizatsiyalash g'oyasining ishlab chiqilishi va uning zamonaviy ilmiy nashrlar hamda normativ hujjatlarda aks ettirilishi uning mohiyatini, oliy ta'limda amalga oshirishning yo'nalishlari va yo'llarini tushunish uchun zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 20-aprel № PQ-2909 - sonli Qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlarida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos mutaxassislarni yetishtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu jarayonda bo'lajak chet til o'qituvchilarining nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy va genderga oid kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari oliy ta'lim tizimida tilni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu muammoga qiziqishning ortishi, birinchi navbatda, talablar darajasining ortishi bilan izohlanadi. Zamonaviy chet tillarini o'qitish maqsadlarini o'zgartirish talablarning o'zgarishiga olib keladi, unga ko'ra pedagogika universitetining filologiya fakulteti bitiruvchisi analitik, dizayn bilimlariga ega bo'lishi, chet tilni o'qitish faoliyatida loyihalash va konstruktiv qobiliyatlar, eksperimental ishlarining asoslarini amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Chet tilini o'qitishda kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni gender tenglik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida gender masalalariga oid autentik matnlardan foydalanish talabalarni ijtimoiy muammolarni tahlil qilishga, turli nuqtai nazarlarni solishtirishga va tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Bunday matnlar orqali talabalar jamiyatdagi gender rollari, teng imkoniyatlar va inson huquqlari haqida chet tilida fikr yuritish ko'nikmasini egallaydilar.

O'qituvchilik faoliyati shaxsiy fazilatlarini, tashabbuskorlikni, ijodkorlikni va kasbiy, metodik faoliyat uchun yuqori motivatsiyani yuqori darajada

rivojlantirishni talab qiladi. Buning uchun tajribaga asoslangan, pedagogik yangiliklarni ommalashtirish va amaliyotda dadil qo'llashga yordam beradigan bir qator shaxsda rivojlangan o'ziga xos xususiyatlar talab qilinadi. Talabalarni tayyorlashning eng muhim yo'nalishi ijodkorlikka (va bu turli xil fikrlash tarzini anglatadi), yangilikka, o'z-o'zini rivojlantirishga va o'z-o'zini takomillashtirishga, ularning kasbiy, metodik tafakkur falsafasini rivojlantirishga turtki beradigan didaktik shart-sharoitlarni yaratishdir.

Ma'lumki, chet tilni o'qitish tilni o'qitish vositalari o'rtasidagi ikki tomonlama aloqa jarayonidir, shuning uchun uni maktabda o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan chet til o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tilni bilish darajasi bilan belgilanadi. Chet tilni o'rganish ustida ishlaganda o'qituvchining o'zi o'rganilgan konstruksiyalarni o'z nutqida imkon qadar tez-tez ishlatib turishi kerak, shunda talabalar ularni nutqda taniy oladilar. Bunday holda, turli vositalar bilan unga e'tibor qaratish mumkin. Ular, masalan, imo-ishora, intonatsiya elektron vositalar bo'lishi mumkin [10].

Shunday qilib, til o'rganuvchilarni tayyorlashga bo'lgan talab universitetning kadrlar tayyorlashning yakuniy maqsadida o'z ifodasini topadi, bu esa bo'lajak chet til o'qituvchilarini chet til normalarini og'zaki va yozma shaklda to'liq o'zlashtirishga, o'rganilayotgan til haqidagi bilim va ulardan amaliy va nazariy foydalanish qobiliyatini nazariy bilim olishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, chet til fakultetlarida chet tilning o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosligi shundaki, o'quv jarayoni bo'lajak chet til o'qituvchilarining chet tilni amaliy o'zlashtirishini ta'minlash, kelajakdagi muloqotning mumkin bo'lgan holatlarini hisobga olgan holda kommunikativ asosda quriladi [5]. Ushbu vazifani bajarish bo'lajak chet til o'qituvchilarni chet tilni keyingi o'qitish uchun maxsus, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini talab qiladi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak chet til o'qituvchisini rivojlantirishda G.A. Matushanskiy ta'kidlagan quyidagi tamoyillar yetakchi o'rin tutadi: talabalarning mustaqilligi; kognitiv, kasbiy, kommunikativ, tashkiliy va axloqiy xarakterdagi muammolar orqali o'quv mazmunini rivojlantirish; talabalarni o'quv va kognitiv faoliyatga qimmatli kiritish; talabalarining o'z harakatlarining ochiqligi va tanlash erkinligi; faoliyat subyekti sifatida o'ziga nisbatan refleksiv pozitsiyani rivojlantirish kabilar [3].

Mutaxassis shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy talablar va universitetda tegishli kasbiy tayyorgarlikning yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati til universitetlarida chet tillarni o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish muammosini dolzarblashtirdi, bu esa mumkin bo'lgan eng maqbul darajaga erishish uchun yangi konseptual yondashuvlarni va chet tildan foydalangan holda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasidan iborat degan nazariyani ilgari surgan.

Zamonaviy dunyoda oliy ta'limning chet tillar fakultetlarida chet tilni o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, u muayyan kasbiy, biznes va ilmiy sohalarda va chet tillarida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishni o'z

ichiga oladi, shuningdek, talabalarining matn bilan ishlash ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish, uni tarjima qilish, tegishli profildagi asl adabiyotlardan ma'lumot olish va foydali ma'lumotlarni ajratib olish imkonini beradi [7].

Chet tilda o'qish kompetensiyasini o'rgatish nutq faoliyatining boshqa turlarini o'zlashtirish uchun mustahkam asos yaratadi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar, jumladan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, raqamli texnologiyalar va aralash ta'lim (blended learning) gender tenglik madaniyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Xalqaro onlayn platformalar orqali tashkil etilgan hamkorlik loyihalari talabalarda global miqyosda gender tenglik masalasini anglash va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Uni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish orqali quyidagilarni tavsiya etiladi:

1. O'qish kompetensiyasini oshirishning eng yaxshi usuli - belgilangan miqdorda har kuni o'qish. Siz har kuni o'qish uchun belgilangan vaqtni ajratishingiz kerak. Bu 20 daqiqadan qisqa bo'lmasligi kerak.

2. Ravonlik (fluency) o'qish taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichidir. O'qishni tushunishni rivojlantirish uchun o'qish ravonligiga ega bo'lish juda muhim va siz uni kitob o'qish orqali qurish mumkin.

3. Har bir talaba o'qish ta'limiga noyob oldingi bilimlarni olib keladi. Qachonki, o'qiyotganingizni yaxshiroq bilish uchun tushunishga va ma'no chiqarishga intilish.

4. O'qish lug'at boyligini, lingvistik ravonlikni, tanqidiy fikrlashni hamda tushunish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi, shu tufayli so'z boyligini egallashni rivojlantirishni tavsiya qilamiz.

5. Ovoz chiqarib o'qishni tavsiya qilamiz chunki bu ularni sekinroq harakat qilishga undaydi, bu esa o'qiganlarini qayta ishlash uchun ko'proq vaqt beradi va o'z navbatida o'qishni tushunishni yaxshilaydi. Shuningdek, ovoz chiqarib o'qish strategiyalari talabalar uchun yangi so'zlarni o'rganish jarayonini modellashtirishga ham yordam beradi.

Zamonaviy ingliz tilini o'qitish metodikasida “yozma nutq” va “yozuv” tushunchalari farqlanadi. Ma'lumki, muloqot og'zaki va yozma nutqdan iborat. Og'zaki nutqda muloqot tinglashdan keyin tushunish, gapirish kabi komponentlar orqali amalga oshiriladi. Yozma nutq o'qish va yozish kabi komponentlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yozish, yozma nutqning ajralmas qismidir. Yozish orqali nutq faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ma'lumot almashiladi [8]. Yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda esa gender tenglikka oid esse, reflektiv yozuvlar, loyiha ishlari va tahliliy maqolalar yozish muhim metodik vosita hisoblanadi. Yozma nutq jarayonida talabalar o'z fikrini aniq va mantiqiy ifodalash, dalillar keltirish va ijtimoiy masalalarga nisbatan ongli munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa gender tenglik g'oyalarini shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, barcha talabalar o'zlarining yozuvlari orqali o'zlarini ifoda etishlariga ishonishni xohlashadi. Agar talabalarga yozishni muhimligini yetkaza olinsa, ular yozish mahoratini oshirishga ilhomlanishi mumkin. Shuningdek,

ularga ovozlari muhimligini va yozishni o'rganish ularga eshitishni his qilishlariga va boshqalarga ta'sir qilishiga yordam berishi mumkinligini bildirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chet tilida yozuv kompetensiyasini o'rgatish, muhim ahamiyat kasb etadi. Uni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish orqali, quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Keng va tahliliy o'qing: Keng o'qish sizning so'z boyligini kengaytiradi, turli xil yozish uslublariga ta'sir qiladi

2. Muntazam yozing: yozuv qobiliyatingizni oshirishning kaliti muntazam yozishdir. Yozuv amaliyoti uchun har kuni yoki haftada alohida vaqt ajrating. Buni mashq qilish yoki o'qish kabi odat sifatida qabul qiling.

3. Yozuv jarayonini qabul qiling: yozuv bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan jarayon bo'lib, ular orasida aqliy hujum, konspekt, loyihalash, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash kiradi.

4. Lug'atingizni kengaytiring: kuchli lug'at har qanday yozuvchi uchun kuchli boylikdir. Doimiy ravishda yangi so'zlar, iboralar hamda iboralarni o'rganish orqali so'z bankingizni kengaytirishga intiling.

5. Aniqlik va soddalikka e'tibor qarating: yaxshi yozish aniq, ixcham va talaba tomonidan oson tushuniladi. Murakkab jumla tuzilmalaridan va ortiqcha jargondan saqlanish muhim. Murakkab g'oyalarni yetkazish uchun oddiy tildan foydalanib, soddalikka qarab intilish katta natija olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish jarayoni gender tenglik madaniyatini shakllantirish uchun muhim pedagogik maydon hisoblanadi. Mazmunan to'g'ri tanlangan o'quv materiallari, metodik jihatdan asoslangan innovatsion yondashuvlar va kompetensiyaviy ta'lim modeli orqali talabalarni nafaqat malakali mutaxassis, balki ijtimoiy mas'uliyatli, gender tenglik tamoyillariga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ–2909-son qaror. – Toshkent, 2017 yil 20 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2017.
3. Matyushanskiy G.A. Professionalnaya podgotovka spetsialista v vysshey shkole. – Kazan: KGU, 2004.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
5. Brown, H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Pearson Education, 2007.
6. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
7. Ur P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

8. Nation I.S.P. Teaching ESL/EFL Reading and Writing. – New York: Routledge, 2009.
9. Hedge T. Teaching and Learning in the Language Classroom. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
10. Jalolov J.J. Chet tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.